MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
JIZZAX FILIALI



"BIOTEXNOLOGIYANING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI"

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI ILMIY-TEXNIK ANJUMAN TO‘PLAMI





28-29-MART
2025-YIL

doi

Google Scholar

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

BIOTEXNOLOGIYANING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI

RESPUBLIKA ILMIY ANJUMANINING TEZISLAR TO‘PLAMI

28-29 mart 2025 y

***

МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ДЖИЗАКСКИЙ ФИЛИАЛ НАЦИОНАЛЬНОГО УНИВЕРСИТЕТА УЗБЕКИСТАНА ИМЕНИ МИРЗО УЛУГБЕКА

СБОРНИК ТЕЗИСОВ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ НАУЧНОЙ КОНФЕРЕНЦИИ

«ПЕРСПЕКТИВЫ И ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ БИОТЕХНОЛОГИЙ»

28-29 марта 2025 г.

JIZZAX – 2025

MAYMUN CHECHAGI VIRUSI VA UNING YUQISH YO‘LLARI

Sharofova I.I., Qo‘shmurodova S.J.
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universitetining Jizzax Filiali
sharofovairoda60@gmail.com

Annotatsiya: Maymun chechagi kasalligi ham xuddi chin chechak kasalligi kabi qadim qadimdan ma’lum bo‘lgan yuqumli kasalliklardan biri hisoblanadi. Maymun chechagi - tabiiy o‘choqli, virus qo‘zg‘atadigan zoonoz kasallik hisoblanib, isitmalash, organizmning umumiy zaharlanishi hamda terida o‘ziga xos toshmalar toshishi bilan kechadigan o‘ta xavfli yuqumli kasallik hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Maymun chechagi, toshmalar, zoonoz kasallik, *Clade I, Clade II*, lezyonlar, fomitlar, infektsiya, limfa tugunlari, ortopoksvirus.

Kirish. Maymun chechagi (*Monkeypox*) ortopoksviruslar oilasiga mansub ikki DNK virusi keltirib chiqaradigan noyob virusli zoonoz kasallik bo‘lib, odam va hayvonlarga yuqadi. U o‘zining toshmalar, isitma va umumiy holsizlik kabi belgilari bilan namoyon bo‘ladi. Kasallik ilk bor 1958-yilda laboratoriya maymunlarida aniqlangan, biroq uning tabiiy rezervuari kemiruvchilar va boshqa kichik sutemizuvchilar ekanligi taxmin qilinadi. Odamlarda maymun chechagi dastlab 1970-yilda aniqlangan. JSST ma’lumotlariga ko‘ra, 2024 yil boshidan buyon dunyoda 14 mingdan ortiq infektsiya holati qayd etilgan. Afsuski, joriy yilning 3/2 qismida chechak tarqalishi 2023-yildagi ko‘rsatkichdan oshib ketgan[1]. Hayvonlar va odamlar o‘rtasida yuqish infektsiyalangan qon, tana suyuqliklari lezyonlar yoki infektsiyalangan fomitlar bilan bevosita aloqada bo‘ladi (yuzma-yuz uzluksiz aloqa, teri lezyonlari, infektsiyalangan fomitlar, shuningdek onadan bolaga yo‘ldosh orqali yoki tug‘ilishda yaqin aloqa orqali yuqadi [2].

Kasallikning belgilari: Isitma (38-40°C), Bosh og‘rig‘i va mushaklardagi og‘riqlar, Limfa tugunlarining kattalashishi, To‘q qizil yoki shishgan toshmalar, Umumiy holsizlik va charchoq [1]. Teri toshmalari odatda 1-3 kun ichida paydo bo‘ladi va 2-4 hafta davom etadi. Virusga qarshi dorilar yo‘q, o‘lim ko‘rsatkichi 3-6% orasida bo‘lishi mumkin. Immuniteti zaif odamlarda kishilarda og‘irroq kechadi [3]. Ushbu virusning ikkita shtammi mavjud: *Clade I va Clade II*. Birinchi shtamm bilan zararlangan har 10 kishidan 1 nafari vafot etadi. 2022-2023-yillardagi epidemiya *Clade II* tomonidan qo‘zg‘atilgan bo‘lib, u bilan kasallangan bemorlarning 99% omon qolgan. Chechakka qarshi emlash odamlarni maymunchechak yuqtirishidan himoya qiladi, chunki ular o‘zaro bog‘liq viruslardir [2]. Maymun chechagi uchun maxsus dori vositalari mavjud emas, shuning uchun davolash asosan simptomatik bo‘lib, bemorning umumiy holatini yengillashtirishga qaratilgan. Asosiy davolash usullari: isitmani tushirish va

og‘riqlarni yengillashtirish uchun dori vositalari, organizmning tabiiy himoya mexanizmlarini qo‘llab-quvvatlash, quvvatli oziqlanish va ko‘p miqdorda suyuqlik qabul qilish [4].

Xulosa: Maymun chechagi virusining tarqalishini kamaytirish uchun, shaxsiy gigiyenaga rioya qilish, kasallangan shaxslar bilan aloqada bo‘lmaslik, hayvonlar bilan ehtiyotkorlikda bo‘lish va vaksina orqali himoyalanish juda muhimdir. Aholi va sog‘liqni saqlash tizimlari birgalikda ish olib borish orqali kasallikning tarqalishini oldini olish va uning global miqyosda kengayishini cheklashlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Cheng T Cho, Herbert A Wenner “Monkeypox virus” Bacteriological reviews 37 (1), 1-18, 1973
2. О. И. Ергашов “Маймун чечаги касаллиги эпидемиологияси ва профилактикаси” Қўқон 2022
3. Mustafa Altindis, Edmond Puca, Laidon Shapo “Diagnosis of monkeypox virus-An overview” Travel medicine and infectious disease 50, 102459, 2022.

RESTRIKTAZA FERMENTLARINING GEN MUHANDISLIGIDAGI AHAMIYATI

Juraqulova M.K., Xolbutayeva Sh.S., Tangirova D.D., Soatov B.B.
O‘ZMU Jizzax filiali
madinajuraqulova20@gmail.com

Annotatsiya: Restriktaza fermentlari XIX asrning 70-yillarida kashf etilganidan buyon molekulyar biologiyada inqilobiy o'zgarishlarga olib keldi. Virusli infektsiyalarni oldini olish uchun mikroorganizmlar tomonidan ishlab chiqarilgan II tip restriktaza endonukleazalari, biotexnologiya sanoatini yaratgan va hayot, sog'liq hamda kasalliklar biokimyosiga oid fundamental bilimlarni taqdim etgan. Bakteriyalardan ajratilgan bu fermentlar, DNKni aniq va o'ziga xos tarzda manipulyatsiya qilish imkonini beradi. Ular DNK zanjirini ma'lum joylarda ajratib, o'ziga xos ketma-ketliklarni taniydi. Molekulyar biologiyada restriktaza fermentlari genlarni klonlash, begona DNKni mezbon organizmlarga kiritish, shuningdek, genetik ketma-ketlik, gen funktsiyasi va regulyatsiyasini o'rganishda muhim rol o'ynaydi.

Kalit so’zlar: Restriktaza, gen regulyatsiyasi, ferment, rekombinant DNK, kesish, to’mtoq uch, yopishqoq uch, transformatsiya.

Xost hujayrasida fag o'sishining mumkin emasligi, fag DNK sining fermentativ degradatsiyasi va fag DNKni ajratuvchi fermentlar bilan bog'liqligi